

O‘ZBEK VA INGLIZ NUTQ ETIKETI SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI MADANIY-KOGNITIV OMILLAR

G'afforova Dilnoza Jabbor qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima
nazariyasi va amaliyoti ingliz guruhi 4-kurs*

dilnozagafforova945@gmail.com +998919706304

Annotatsiya: Mazkur maqola nafaqat o‘zbek, balki ingliz nutq etiketi tizimlarining shakllanishida asosiy o‘rin tutgan madaniy-kognitiv omillarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Turli til jamoalariga mentalitet, tarixiy rivojlanish, ijtimoiy o‘rni va gender meyorlarining qanday ta’sir ko‘rsatganligi tahlil etiladi. Tadqiqot davomida lingvokulturologik yondashuvga tayangan holda ikki xalq o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar yoritiladi. Bundan tashqari, murojat shakllari, mulohaza yuritish uslubi, muloqot jarayonidagi masofa, hurmat ko‘rsatish normalari, bevosita va bilvosita ifoda kabi nutq etiketi jihatlari qiyosiy ravishda ko‘rsatilib, til va madaniyat orasidagi uzviy bog‘liqlik yoritiladi.

Kalit so‘zlar: nutq etiketi, mentalitet, madaniy-kognitiv omillar, o‘zbek nutqi, ingliz nutqi, gender, ijtimoiy rol, tarixiy madaniyat, lingvokulturologiya.

Eng qadimgi davrlardan har bir xalqning ijtimoiy hayoti, tarixiy tajribasi va aqliy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda uning nutq madaniyati shakllanib borgan. O‘zbek va ingliz xalqlarining nutq etiketi ham turli madaniy qatlamlar, qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar jihatidan har xilligi tufayli ham ularning o‘zaro farqlanishi tabiiy jarayon sanaladi. Tilshunoslikdagi lingvokulturologiya yo‘nalishida tilning madaniy kontekstda namoyon bo‘lishi bilan birgalikda xalqning dunyoqarashi, shuningdek ma’naviy rivojlanish modeli orqali shakllanishi alohida ahamiyatga ega deb qaraladi. (Brovn, 2015; Vierzbicka, 1999). Mazkur maqola bu ikki til nutq etiketi tizimlarini belgilovchi asosiy omillar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

O‘zbek xalqining nutq madaniyati asrlar davomida sharqona odob-axloq asosida shakllanib kelgan bo‘lib, unda oila jamiyatning asosiy bir bo‘g‘ini sifatida qaralishi bilan bir qatorda islomiy turmush tarzi asosida hayot kechirilishi va jamoaviylik tamoyillarining ta’siri ostida shakllanib borishiga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli ham nutqda hurmat, muloyimlik, murojaat jarayonida bilvositalilik va katta-kichikka hurmat-izzat, ergashish kabi normalar ustunlik qiladi. Protestant axloqining ustuvorligi, individualizm g‘oyasiga tayanganligi, shaxsiy hudud (privacy) va rasmiylik muvozanati mavjudligi esa ingliz jamiyatida muloqot madaniyatining asosiy omillaridan hisoblanadi. (Foley, 2005; Spensr-

Oatey, 2008). Bundan biz ingliz nutqida qisqalik, aniqlilik, nazokatlik bilan birga masofa saqlangan uslub, ustuvorligiga guvoh bo‘lamiz.

Quyida keltirilgan misolda mentalitet farqlari aniq seziladi:

“O‘zbek muloqotida suhbat boshlanishdan oldin hol-ahvol so‘rash va ehtirom ko‘rsatish muhim bo‘lsa, ingliz muloqotida qisqa salomlashuvdan so‘ng darhol mavzuga o‘tish tabiiy hol hisoblanadi” (Karimova, 2020). Bu holat ikki jamiyatning psixologik jihatdan turlicha ekanligi, ya‘ni o‘zbeklarning muloqot jarayonida ijtimoiy yaqinlik dominantlik qilsa, inglizlarda esa bu funksional maqsad bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, har ikki jamiyatda nutq etiketi shakllanishiga tarixiy tajribaning o‘rni sezilarli bo‘lgan. Masalan, O‘zbek nutq etiketi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining qadimiy qatlamlarini, turkiy an‘analarni, shu bilan bir qatorda islom diniga tayangan pand-nasihat an‘analarini o‘z ichiga oladi. Buning natijasi o‘laroq til tarkibida “rahmat”, “iloji bo‘lsa”, “yaxshi niyat”, “xudo xohlasa” kabi diniy-madaniy elementlarning keng qo‘llanishi shakllangan. Ingliz nutq etiketining rivojida esa monarxiya, yuqorida aytib o‘tilgan protestant axloqi, sanoatlashuv jarayoni va ijtimoiy tabaqallashuv asosiy o‘rin tutishi muloqotda rasmiylik va shaxsiy chegaralarning mustahkamlanishiga sabab bo‘lgan (Krystal, 2003).

Ijtimoiy rol ham mentalitetga oid omillar bilan birga nutq tarkibini belgilaydi. O‘zbek jamiyatida yoshi ulug‘ inson bilan suhbat jarayonida gapirish ohangi, murojaat shakli va iboralarning yumshoq tarzda qo‘llanilishi kuzatiladi. “Domla”, “Opa”, “Aka”, “Ustoz” kabi ijtimoiy-maqomiy murojaatlar suhbatning ma‘naviy va axloqiy asosini tashkil qiladi. Ingliz tilida esa ijtimoiy rol ko‘proq rasmiylik darajasi bilan belgilanishi ularda rasmiy kontekstda “Mr./Ms. + familiya” tarzida qo‘llanilishini va norasmiy holatda esa bevosita ism bilan murojaat qilish odatiy hol hisoblanadi. Bu farq ingliz jamiyatida ijtimoiy iyerarxiya bilan bir qatorda shaxsiy tenglik tamoyili ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Gender omillari ham ikki xalq nutq etiketida turlicha aks etadi. O‘zbek jamiyatida ayollar nutqi odatda muloyimlik, bilvosita va murojaat jarayonida ehtiyotkorroq bo‘lish kabi me‘yorlar mavjud. Tarixiy-madaniy omillar natijasida ayollarning jamoat muloqotidagi faolligi ham ma‘lum chegaralarda shakllangan (Tursunova, 2018). Ingliz madaniyatida esa gender tengligi nutq etiketida ham aks etadi, unda ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar minimal holatda bo‘lib, “Ms.” kabi neytral murojaatlar genderga oid tafovutlarni kamaytirish maqsadida joriy etilganligini kuzatish mumkin.

Quyida keltirilgan iqtibos ingliz nutqiga xos nazokat va masofaning qanday talab qilinishini ko‘rsatadi:

“Politeness in English is not only about respect, but also about minimizing imposition and preserving the interlocutor’s personal space” (Spensr-Oatey, 2008).

Bu yondashuvdan ingliz mentalitetiga oid “shaxsiy hudud” tushunchasining markaziy o‘rinda turishini ko‘rishimiz mumkin.

Nutq etiketi tarkibida bevosita va bilvosita ifoda usullarining qo‘llanilishida kuzatiladigan farqlar ham madaniy-kognitiv xususiyatlar bilan izohlanadi. O‘zbek madaniyatida rad javobi yumshatilib, odatda ochiqdan-ochiq aytilmaydi. Inglizlarda esa muloyim tarzda bo‘lsa ham, aniq, lo‘nda va ochiq tarzda ifodalanadi.

O‘zbek va ingliz nutq etiketining qiyosiy tahliliga ko‘ra, har ikki madaniyat o‘zaro hurmat prinsipiga tayansa-da, bu hurmatning ifoda shakli turlicha bo‘lib, uni belgilovchi asosiy omillar mentalitet, tarixiy tajriba, ijtimoiy rol va gender me‘yorlari kabini o‘z ichiga oladi. O‘zbeklar nutqida iliqlik, muloyimlik, bilvositalik va ierarxiya kuchli bo‘lsa, ingliz nutqida rasmiylik, aniqlik, masofa va nazokat ustun turadi. Bu farqlar jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi, qadriyati va kognitiv modeli bilan chambarchas bog‘liq.

Nutq etiketi faqat lingvistik hodisa bo‘lib qolmasdan, shu bilan birga jamiyatning ma‘naviy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi madaniy ko‘rsatgich sifatida ham namoyon bo‘ladi. Har bir xalq o‘z tarixiy tajribasiga, ijtimoiy jihatdan qay yo‘sinda shakllanganligiga va avloddan avlodga o‘tib kelayotgann qadriyatlariga mos ravishda nutq odobini shakllantiradi. Shu sababli ham o‘zbek va ingliz nutq etiketi o‘rtasidagi farqlarni tushunishda ularning tafakkur tarzi va dunyoqarashini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek nutq madaniyatida sukut saqlash, bilvosita ifodalash va ishoraviy muloqot ham muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ko‘pincha fikrni ochiq tarzda aytmasdan, yumshoq va iboralardan ehtiyotkorlik bilan yetkazish afzal ko‘riladi. Bu holatdan shuni ko‘rish mumkinki, o‘zbek jamiyatida murosa, totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan tafakkuriy yondashuv natijasi hisoblanadi.

Inglizlarda esa nutq etiketi tafakkur jihatidan aniqlik va mantiqiylikka tayanadi. Suhbat jarayonida shaxsiy fikrni ochiq tarzda ifoda etish, muloqot vaqtini tejash va mavzudan chetga chiqmaslik asosiy tamoyil hisoblanadi. Bunday yondashuvdan ingliz jamiyatidagi shaxsiy mustaqillik va mas‘uliyat yuqori darajada baholanishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, nutq etiketi shakllanishida ijtimoiy maqom bilan bog‘liq bo‘lgan tafakkur stereotiplar ham alohida o‘rin tutadi. O‘zbek jamiyatida lavozimi nuqtayi nazaridan kelib chiqib yoki yoshiga qarab turlicha muloqotga tarzi farqlansa, inglizlarda ijtimoiy tenglikka tayanilganlik ustuvorlik qiladi. Bu farq ikki xalq nutqida rasmiylik darajasining turlicha namoyon bo‘lishiga olib keladi. (Brovn & Levinson, 1987; Holmes, 2013).

Gender omillari bilan bog‘liq qarashlar ham nutq etiketi tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbek madaniyatida ayol nutqining muloyimligi, erkak nutqining qat‘iyligi qadriyat sifatida qaralishidan, ingliz madaniyatida esa nutq uslubi jinsga aloqador

bo‘lmaydi. Bu holatdan ingliz jamiyatida gender tengligi tamoyillarining chuqur ildiz otganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Nutq etiki shakllanishida mentalitetga xos omillar markaziy o‘rin tutadi. Har bir millat vakili muloqot jarayonida voqelikni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va baholaydi. O‘zbek nutqida bilvosita ifodalar, kinoya va yumshoq ohang ustun bo‘lsa, ingliz nutqida mantiqiy izchillik va shaxsiy fikrning ochiq tarzda ifodalash yetakchi hisoblanadi. Bu farq xalqlarning tarixiy tajribasi va jamiyatda shakllangan tafakkur modellari bilan bog‘liq bo‘ladi (Vierzbicka, 1991; Karimov, 2018).

Tarixiy jarayonlar ham nutq etiki tizimiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbek xalqi uzoq vaqtlar davomida an‘anaviy qishloq tizimida yashagan bo‘lib, muloqot jarayonida ijtimoiy birdamlik va o‘zaro bog‘liqlik ustuvor bo‘lgan. Ingliz jamiyati esa sanoatlashuv va shahar madaniyati ta‘sirida shakllangan bo‘lib, bunda vaqt, aniqlik va individual mas‘uliyat muhim ahamiyat kasb etgan (Hofstede, 2001; Saidova, 2020).

Ijtimoiy rol omili nutq etiki normalarining qat‘iylashuvida muhim omillardan biridir. O‘zbek jamiyatida o‘qituvchi, ota-ona, rahbar rollari alohida o‘ziga xos hurmat bilan tilga olinadi va bu nutq birliklarida aks etadi. Inglizlar nutqida esa ijtimoiy rol saqlanib qolgan bo‘lsa-da, muloqotda haddan tashqari masofani saqlashga intilish kamroq uchraydi (Trudgill, 2000; Yusupova, 2019).

O‘zbek va ingliz nutq etiki tizimlarini qiyosiy o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo muloqot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar turli madaniyat vakillari o‘rtasida noto‘g‘ri tushunishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Nutq etiki ortida yotgan aqliy va ruhiy va ijtimoiy omillarni anglash samarali kommunikatsiyaning muhim sharti hisoblanadi (Kramsh, 1998; Mahmudov, 2022).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek va ingliz nutq etiki tizimlarining shakllanishi bevosita madaniy va tafakkurga asoslangan omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi mazkur tahlillar asosida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek nutq etiki asosan kollektiv ong, an‘anaviy qadriyatlar, ijtimoiy iyerarxiya va yosh omiliga tayangan holda rivojlangan bo‘lib, bunda bilvosita muloqot, hurmat va muloyimlik asosiy kommunikativ tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz nutq etiki esa individual tafakkur, shaxsiy hudud daxlsizligi va aniqlikka asoslangan madaniy model doirasida shakllanib, unda rasmiylik, nutqiy masofa va ochiq fikr bildirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jarayonlar — Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarining rivojlanish yo‘li, diniy-axloqiy qarashlar, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalar — har ikki til nutq etiketining bugungi ko‘rinishini belgilab bergan muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy rol va gender munosabatlari ham nutq madaniyatida muhim farqlarni yuzaga keltiradi. O‘zbek jamiyatida gender va yosh omiliga bog‘liq nutqiy tafovutlar kuchli bo‘lsa, ingliz jamiyatida bu farqlar minimal

darajaga keltirilgan va tenglik tamoyiliga asoslangan. Umuman olganda, nutq etiketi nafaqat lingvistik hodisa, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va tafakkur modelining aksidir. Shu sababli ham o‘zbek va ingliz nutq etiketi tizimlarini qiyosiy o‘rganish til o‘qitish, tarjima, madaniyatlararo muloqot va pragmalolingvistika kabi sohalar uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
3. Holmes, J. (2013). An introduction to sociolinguistics. Routledge.
4. Ismoilova, M. (2021). O‘zbek nutq madaniyatida ijtimoiy va gender omillari. Til va adabiyot ta’limi, (3), 28–34.
5. Rashidova, N. B. Active, common words-arabisms of the sphere of education in the uzbek language.
6. Kholmatova, M. (2023). Madaniyat va til o‘zaro munosabatining kognitiv jihatlar. Zamonaviy filologiya tadqiqotlari, 1(1), 60–68.
7. Sharopov, J. (2019). Nutq etiketi va ijtimoiy munosabatlar. Filologiya masalalari, 2(4), 45–52.
8. The role of an individualized approach in modern education. (2025). Global Science Review, 3(1), 3–12. <https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/481>